6	CBA – xarajat-foйда tahlili	$CBA = \frac{\text{Total Benefits}}{\text{Total Costs}}$	Haqiqiy va kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy foyda va xarajalar taqqoslanadi.	CBA > 1 — ijobiy samaradorlik
7	WACC – kapital o'rtacha bahosi	$WACC = \frac{E}{V} \cdot Re + \frac{D}{V} \cdot Rd \cdot (1 - T)$	E – aksiyalar, D – qarz, V – umumiy kapital. Re, Rd – foiz stavkasi. T – soliq stavkasidan tashqari.	IRR > WACC bo'lishi shart
8	EBITDA – amaliy foyda	$EBITDA = \text{Revenue} - \text{Expenses (tax, interest, amortization)}$	Faoliyatdan oldingi foyda. Qarz va soliqlardan oldingi daromadni ko'rsatadi.	Musbat bo'lishi daromadlilik belgisi
9	Operating Margin – operatsion foyda	$\text{Operating Margin} = \frac{\text{Operating Profit}}{\text{Revenue}} \times 100\%$	Asosiy faoliyatdan olinayotgan foyda foizi.	Yuqori foiz — samarali boshqaruv
10	DPP – diskontlangan qoplanish vaqti	$DPP = n + \frac{\text{Қопланмаган сумма}}{(n+1)\text{-йилдаги дисконтланган CF}}$	Odatiy Payback Period'dan farqli, vaqtning pul qiymatini inobatga oladi.	DPP ≤ loyiha muddati — investitsiya maqsadli

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari sog'liqni saqlash sohasida infratuzilmani takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni samarali tashkil etishga qaratilgan muhim investitsiya mexanizmidir. Bunday loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonida ko'plab moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular orasida eng ahamiyatlisi va keng qo'llaniladigani — NPV (sof joriy qiymat) hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich investitsiya loyihasidan kelajakda kutilayotgan barcha pul oqimlarining (daromadlar va xarajalar) hozirgi vaqtga diskontlangan qiymatlari summasi sifatida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich orqali loyihaning iqtisodiy samaradorligi va uning moliyaviy jozibadorligi baholanadi. Formulada NPV quyidagicha ifodalanadi:

² Muallif tomonidan tuzilgan.



$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{CF_t}{(1+r)^t}$$

bu yerda:

CF_t - t-yildagi (yoki boshqa vaqt birligidagi) daromadlar (pul oqimi);

r - diskont stavkasi, ya'ni kapitalning imkoniyat qiymati yoki risk darajasi;

T - loyiha muddati (yillar soni).

Sog'liqni saqlash sohasida moliyalashtiriladigan davlat-xususiy sheriklikka asoslangan investitsiya loyihalari bo'yicha samaradorlikni aks ettiruvchi NPV ko'rsatkichining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Vaqt qiymatini hisobga olish. NPV loyiha oqimlarini diskontlash orqali pulning vaqt qiymatini inobatga oladi. Bu esa loyihaning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Masalan, kelajakda olinadigan 1 million so'mning hozirgi qiymati uni bugun olishga qaraganda pastroq bo'lishi mumkin, chunki pulni boshqa joyda foyda bilan ishlatish imkoniyati mavjud.

Ishonchli va obyektiv baholash. NPV ko'rsatkichi loyihaning ijobiy yoki salbiy iqtisodiy natijalarini aniq ko'rsatadi. Agar $NPV > 0$ bo'lsa, loyiha investitsiyalarni qoplaydi va qo'shimcha iqtisodiy samara keltiradi, ya'ni loyiha manfaatli hisoblanadi. Aks holda, loyiha moliyaviy jihatdan zararli yoki samarasiz bo'ladi.

Xavf va risklarni hisobga olish. Diskont stavkasi orqali loyihaning turli risklari, jumladan moliyaviy, siyosiy va bozorga bog'liq xavflar inobatga olinadi. Bu esa, ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasida loyihalarning uzoq muddatli va ko'p qirrali xususiyatini hisobga olgan holda, samaradorlikni aniq baholash imkonini beradi.

Resurslarni samarali taqsimlash. DXSH doirasida bir necha loyihalarning raqobatini baholashda NPV orqali ularning iqtisodiy jihatdan qay biri ustuvorligini aniqlash mumkin. Bu davlat va xususiy sektor uchun moliyaviy resurslarni eng samarali loyihalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Sog'liqni saqlash tizimiga ijobiy ta'sirini baholash. NPV loyihaning faqat moliyaviy ko'rsatkichlari emas, balki jamiyatga ko'rsatadigan ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini ham hisobga olishga xizmat qiladi. Chunki investitsiya loyihasing ijobiy NPVsi sog'liqni saqlash xizmatlarining sifat va ko'lam jihatdan yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari sog'liqni saqlash tizimida infratuzilmani takomillashtirish, tibbiy xizmatlarning sifatini va ko'lamini oshirishga qaratilgan strategik investitsiya vositasidir. Bunday loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardan biri — IRR (Internal Rate of Return) yoki ichki qaytish stavkasi hisoblanadi. IRR — bu loyihaning pul oqimlari uchun diskont stavkasi bo'lib, u loyihaning NPV ko'rsatkichi nolga teng bo'lishini ta'minlaydi. Ya'ni, IRR loyihaning investor uchun minimal qabul qilinadigan daromad darajasi sifatida qaraladi. IRR quyidagicha aniqlanadi:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} = 0$$

bu yerda:

CF_t - t yildagi pul oqimi;

T - loyiha muddati (yillar);

IRR - ichki qaytish stavkasi, ya'ni diskont stavkasi;

t - vaqt indeksi (odatda yillarda).

IRR — diskont stavkasi bo'lib, u loyihaning kelgusi pul oqimlarining hozirgi qiymatining investitsion sarmoyaga teng bo'lishini ta'minlaydi. IRRni topish uchun yuqoridagi tenglamani yechish lozim. Bu odatda analitik usulda aniqlanmaydi. Agar IRR loyihaning kapital qiymatining imkoniyat stavkasidan (diskont stavkasi) yuqori bo'lsa, loyiha moliyaviy jihatdan maqbul hisoblanadi.

IRRning sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalardagi ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

Investitsiya loyihasing samaradorligini baholash. IRR sog'liqni saqlash loyihalari uchun sarmoya kiritish samaradorligini aniqlaydi. Agar IRR loyihaning minimal talab qilingan qaytish stavkasidan (kapital qiymati) yuqori bo'lsa, loyiha moliyaviy jihatdan manfaatli hisoblanadi.

Risklarni baholash va taqqoslash imkoniyati. Sog'liqni saqlash sohasida loyihalar ko'pincha uzoq muddatli va katta sarmoya talab qiladi. IRR orqali turli loyihalarning moliyaviy qaytishini solishtirish mumkin, bu esa loyihalarni saralashda yordam beradi.

Resurslarni samarali taqsimlash. Moliyaviy resurslar cheklangan bo'lgan vaziyatda, IRR eng yuqori bo'lgan loyihalarga investitsiya kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu sog'liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.



Investitsiya qarorlarini qabul qilishda asos. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida (DXSH) IRR ko'rsatkichi investorlar va davlat organlari uchun qaror qabul qilishda muhim mezon hisoblanadi, chunki u investitsiya qaytishi va loyihaning iqtisodiy jihatdan maqbulligini aks ettiradi.

Loyiha muddati va naqd oqimlarining ta'sirini hisobga olish. IRR loyiha muddati davomidagi naqd oqimlarni hisobga oladi, bu esa sog'liqni saqlash loyihalarining uzoq muddatli investitsion ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida PI samaradorlik ko'rsatkichining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Investitsiya javobgarligini aniqlash. PI loyihaga sarmoya kiritishdan keladigan har bir birlik investitsiya uchun qaytariladigan daromad miqdorini ko'rsatadi. Agar $PI > 1$ bo'lsa, loyiha samarali, ya'ni sarmoyadan ko'proq daromad olinadi.

Resurslarni taqsimlashda qo'llanilishi. Cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida bir nechta loyihalarni solishtirishda PI ko'rsatkichi juda foydali. U har bir sarmoya birligiga qaytariladigan mablag'ni aniqlaydi va shu asosda eng samarali loyihalar tanlanadi.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari ko'pincha uzoq muddatli bo'lib, kapital sarmoyasi katta bo'ladi. PI loyiha uchun sarmoyaning qancha qismi iqtisodiy jihatdan to'liq qoplanayotganini ko'rsatadi.

Investitsiya qarorlarini qo'llab-quvvatlash. Davlat va xususiy investorlar loyihani moliyaviy jihatdan baholashda PI ko'rsatkichidan foydalanib, loyihani amalga oshirish yoki rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Keladigan foyda va sarmoya miqdorining nisbatini ko'rsatish. PI ko'rsatkichi nafaqat umumiy daromadni, balki shu daromadning sarmoyaga nisbatan miqdorini ham ko'rsatadi. Bu loyihaning samaradorligini xolis baholashda muhimdir.

PI ko'rsatkichini hisoblash formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$PI = \frac{\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t}}{I_0}$$

bu yerda:

CF_t — loyihadan t-chi yilda keladigan oqim;

r — diskont stavkasi (kapital qiymati);

n — loyiha muddati (yillar soni);

I_0 — dastlabki investitsiya xajmi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida PI ko'rsatkichi loyihaning moliyaviy foydali ekanligini aniqlash, sarmoya kiritishning maqbulligini baholash va resurslarni optimal taqsimlashda muhim instrument bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, PI ko'rsatkichi orqali loyihalarni bir-biri bilan solishtirish va sarmoyalarni samarali yo'naltirish imkoniyati yaratiladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari investitsiyalarni jalb etish va sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim mexanizm sanaladi. Bu jarayonda investitsiyaning qaytarimini baholash esa loyihaning moliyaviy va iqtisodiy jihatdan samaradorligini aniqlashda asosiy o'rin tutadi. Shu jihatdan ROI (Return on Investment – investitsiya qaytarimi) ko'rsatkichi davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ko'rsatkichning asosiy ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Investitsiyaning samaradorligini aniqlash. ROI ko'rsatkichi loyihaga kiritilgan sarmoyalardan qaytarilgan foyda foizini ifodalaydi. Bu loyihaning qanchalik daromadli ekanligini baholashga yordam beradi. Masalan, agar ROI yuqori bo'lsa, demak loyiha investitsiyalarni oqilona sarflagan va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan.

Qaror qabul qilish jarayonida muhim vosita sifatida. ROI davlat va xususiy sektor uchun loyihaning moliyaviy oqilligini baholashda sodda va tushunarli indikator sifatida xizmat qiladi. Agar ROI ko'rsatkichi manfaatli bo'lmasa, sarmoya kiritish yoki loyihani amalga oshirish haqida qaror qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Loyiha natijalarini monitoring qilishning asosiy instrumenti sifatida. Loyiha amalga oshirilganidan keyin uning samaradorligini tahlil qilish va baholash uchun ROI ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu, shuningdek, kelgusi loyihalarni rejalashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy va moliyaviy samaradorlikni umimlashtirish. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida iqtisodiy foydadan tashqari, aholi salomatligini yaxshilash va xizmat sifatini oshirish kabi ijtimoiy maqsadlar ham mavjud. ROI ko'rsatkichi loyihaning iqtisodiy jihatdan qanchalik manfaatli ekanligini aniqlashda yordam beradi va ijtimoiy ta'sirni baholashda qo'shimcha asos bo'ladi.



Investitsiyalarni taqsimlashda ustuvorliklarni belgilash. Cheklangan mablag'lar sharoitida bir nechta loyihalarni taqqoslashda qaysi loyihaga sarmoya kiritish maqbulligini aniqlashda ROI asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

ROI samaradorlikni baholash ko'rsatkichi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$ROI = \frac{\text{Лойиҳадан олинган соф даромад}}{\text{Лойиҳага киритилган сармоя}} \times 100\%$$

$$ROI = \frac{\text{Даромад} - \text{Сармоя}}{\text{Сармоя}} \times 100\%$$

bu yerda:

daromad - loyihadan tushgan umumiy mablag'lar yoki foyda;

sarmoya - loyihaga kiritilgan jami mablag'lar.

Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ROI ko'rsatkichi investitsiyalarning qaytarimini va loyihaning moliyaviy samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ko'rsatkichning sodda va aniq bo'lishi davlat va xususiy investorlarga loyihalarni tahlil qilish, rejalashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, ROI orqali moliyaviy natijalarni tahlil qilish va kelajakdagi investitsiya qarorlarini asoslash mumkin.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, faqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ham inobatga olgan holda baholanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan CBA (Cost-Benefit Analysis) — xarajat va foyda tahlili, loyihaning umumiy samaradorligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

CBA samaradorlik ko'rsatkichining asosiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Loyihaning umumiy ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini baholash. CBA metodologiyasi loyiha bilan bog'liq barcha xarajatlar (moliyaviy, operatsion, ijtimoiy, ekologik va boshqalar) hamda loyiha tufayli olinadigan foydalar (sog'liqni saqlash xizmatlari sifatining oshishi, aholi salomatligini yaxshilash, iqtisodiy samaradorlik)ni hisobga oladi. Bu davlat-xususiy sheriklikdagi loyihaning keng ko'lamdagi samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Qaror qabul qilish jarayonida manfaatli loyihalarni tanlashga yordam berish. CBA orqali har bir loyiha uchun ijtimoiy foyda va xarajatlarning nisbatini (Benefit-Cost Ratio, BCR) hisoblash mumkin. Agar $BCR > 1$ bo'lsa, loyiha ijtimoiy jihatdan manfaatli hisoblanadi. Bu davlat organlari va xususiy investorlar uchun loyihalarni solishtirishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Investitsiyalarning ijtimoiy samaradorligini ko'rsatish. Sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalarda nafaqat moliyaviy daromad, balki aholi salomatligi va turmush sifatiga ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'sir ham muhimdir. CBA loyihaning ijtimoiy oqibatlarini mablag'da ifodalashga harakat qiladi, bu esa sohadagi strategik rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xarajatlarni optimal taqsimlashni ta'minlash. Cheklangan resurslar sharoitida CBA yordamida sog'liqni saqlash sohasidagi turli loyihalarning ijtimoiy samaradorligini tahlil qilish va investitsiyalarni eng foydali yo'nalishlarga yo'naltirish imkoni paydo bo'ladi.

CBA ko'rsatkichini hisoblashning bazaviy formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$NPV = \sum_{t=0}^T \frac{B_t - C_t}{(1 + r)^t}$$

bu yerda:

NPV — sog'liqni saqlash loyihasining jamlangan netto foydasi (Net Present Value) yoki ijtimoiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi;

B_t — loyiha natijasida belgilangan vaqtda tushgan foyda (ijtimoiy va moliyaviy);

C_t — loyiha uchun sarf qilingan xarajatlar (moliyaviy, ijtimoiy va boshqalar);

r — diskont stavkasi;

t — vaqt indeksi (loyiha muddati bo'yicha);

T — loyiha amal qilish muddati.

Agar $NPV > 0$ bo'lsa, loyiha ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan manfaatli hisoblanadi. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida CBA yoki xarajat va foyda tahlili metodologiyasi loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkich orqali nafaqat moliyaviy natijalar, balki aholi salomatligi, xizmatlar sifatining oshishi va boshqa ijtimoiy ta'sirlar ham baholanadi. Shu sababli CBA



sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining muvaffaqiyati va investitsiyalarning oqilona taqsimlanishi uchun muhim instrument hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashda WACC ko'rsatkichi — loyiha uchun o'rtacha sarmoyalash qiymati (kapitalning o'rtacha og'irlikli narxi) bo'lib, u loyiha yoki tashkilotga jalb qilingan barcha manbalar — o'z mablag'lari (aksiya kapitallari), qarz mablag'lari va boshqa majburiyatlar uchun to'lanadigan mablag'larning o'rtacha tahlil qilingan qiymatini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich investorlar uchun sarmoya qaytarish darajasini aks ettiradi va loyiha investitsiyalari uchun minimal kutilgan daromad darajasi sifatida xizmat qiladi.

WACCni hisoblash formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$WACC = \frac{E}{V} \times R_E + \frac{D}{V} \times R_D \times (1 - T_c)$$

bu yerda:

E — o'z kapitali (equity) miqdori;

D — qarz kapitali (debt) miqdori;

$V = E + D$ — umumiy kapital miqdori;

R_E — o'z kapitali uchun kutilgan daromad (cost of equity);

R_D — qarz kapitali uchun kutilgan daromad yoki qarz bo'yicha stavka (cost of debt);

T_c — soliq stavkalarining ta'siri (corporate tax rate).

WACC ko'rsatkichining sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini baholashdagi ahamiyatini quyidagi jihatlarida aniqlash mumkin:

Investitsiyalarning minimal rentabellik me'yori sifatida. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida sarmoyachilar uchun minimal qanoatlantiruvchi daromad WACC bilan belgilanadi. Agar loyihaning ichki daromad ko'rsatkichi (IRR) WACCdan yuqori bo'lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi va uni amalga oshirish ma'qul deb topiladi.

Loyihaning moliyaviy barqarorligini baholash. WACC loyiha moliyalashtirilishida kapital va qarz manbalari miqdorini hamda ularning qiymatini inobatga oladi. Shu bilan birga, u loyihaning qarz yuki va kapital sarflanishining optimal muvozanatini aniqlashda yordam beradi. Bu sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalarining ustuvorligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihaning qiymatini aniqlashda diskont stavkasi sifatida. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida kelajakdagi pul oqimlarini (cash flows) diskontlash uchun WACC diskont stavkasi sifatida qo'llaniladi. Bu loyihaning hozirgi qiymatini aniqlashda muhimdir, chunki barcha xarajatlar va daromadlar WACC orqali nozik va aniq baholanadi.

Investitsiya xavfini hisobga olish. WACC kapitalning turli manbalari uchun turlicha to'lovlar va xavflarni aks ettiradi. Masalan, qarz kapitali odatda o'z kapitaliga nisbatan kamroq xavfli bo'lib, qarz bo'yicha to'lovlar soliq imtiyozlari orqali qisman yumshatilishi mumkin. Shu tariqa, WACC loyiha xavfini hisobga olishga xizmat qiladi va real rentabellikni ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini baholashda WACC ko'rsatkichi investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini to'g'ri baholash uchun muhim hisoblanadi. U loyihaning investitsiya jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi va xavf darajasini aniqlashda muhim yo'riqchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun har qanday davlat-xususiy sheriklik loyihasini moliyalashtirish va investitsiya qarorini qabul qilishda WACC ko'rsatkichiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashda EBITDA (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation and Amortization) ko'rsatkichi — foyda mezon bo'lib, u loyiha yoki korxonaning asosiy faoliyatidan olingan daromadni soliqlar, foizlar, amortizatsiya va boshqa hisobdan chiqariladigan xarajatlarni hisobga olmagan holda aks ettiradi. Bu ko'rsatkich loyiha yoki korxonaning moliyaviy holatini va daromadlilikini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rsatkichni hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$EBITDA = \text{Operating Profit} + \text{Depreciation} + \text{Amortization}$$

$$EBITDA = \text{Net Income} + \text{Interest} + \text{Taxes} + \text{Depreciation} + \text{Amortization}$$

bu yerda:

Operating Profit — operatsion foyda;

Depreciation — amortizatsiya;

Amortization — moddiy bo'lmagan aktivlarning amortizatsiyasi;



Interest — foizlar xarajati;

Taxes — soliqlar.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashda EBITDA ko'rsatkichining ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

Loyihaning asosiy operatsion faoliyatini baholash. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari ko'pincha katta investitsiya va mablag'larni talab qiladi, lekin loyiha faoliyatining samaradorligi va daromadlilikini aniqlash muhimdir. EBITDA ko'rsatkichi loyiha yoki muassasaning asosiy faoliyatidan qanchalik daromad keltirishini ko'rsatib, uning operatsion samaradorligini baholashga yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlik va likvidlikni baholash. EBITDA qarzlarini qaytarish va kreditorlik majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Sog'liqni saqlash sohasida loyihalar odatda qimmatbaho asbob-uskunalar va infratuzilmani rivojlantirishga katta sarmoya talab qiladi. Shu sababli EBITDA qarzlarining xizmat ko'rsatish qobiliyatini baholashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Solishtirma tahlillar uchun asos sifatida. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini turli sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa loyihalar bilan solishtirishda EBITDA samaradorlikni aniq va adolatli baholash imkonini beradi. Chunki u soliqlar, foizlar va boshqa bir martalik moliyaviy ta'sirlardan mustaqil bo'lib, faqat asosiy faoliyatni aks ettiradi.

Investitsiya qaytarimi va kreditorlar uchun muhim ko'rsatkich. Investorlar va kreditorlar EBITDAni loyihaning pul oqimlarini ta'minlash qobiliyati sifatida ko'rib, uning moliyaviy xavfini baholashda foydalanadilar. Bu ko'rsatkich loyihaning investitsiyalarni qaytarish imkoniyatini tahlil qilishda muhim mezon hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida sog'liqni saqlash sohasida moliyalashtirilgan investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini baholashda Operating Margin ko'rsatkichining ahamiyati shundaki, bu samaradorlik ko'rsatkichi investitsiya loyihasida asosiy faoliyatdan olingan foydaning (operatsion daromad) umumiy daromadga nisbati, ya'ni loyihaning operatsion samaradorligini ko'rsatuvchi moliyaviy mezonidir. Ushbu ko'rsatkich loyihaning daromadlari tarkibidagi xarajatlar nisbatini aniqlashga yordam beradi, ya'ni qancha daromad operatsiyalarning barcha doimiy va o'zgaruvchan xarajatlari qoplangandan keyin qolayotganini ko'rsatadi.

Mazkur samaradorlik ko'rsatkichini hisoblashda quyidagi formula qo'llaniladi:

$$\text{Operating Margin} = \frac{\text{Operating Profit}}{\text{Total Revenue}} \times 100\%$$

bu yerda:

Operating Profit — asosiy faoliyatdan olingan foyda, ya'ni umumiy daromaddan operatsion xarajatlar chiqarilgandan keyingi natija;

Total Revenue — loyiha yoki korxonaning umumiy tushumlari.

Ushbu ko'rsatkichni hisoblash asosida aytish mumkinki, sog'liqni saqlash sohasidagi investitsiya loyihalari bo'yicha uning ahamiyatini quyidagicha baholash mumkin:

Loyihaning operatsion samaradorligini aniqlash. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida Operating Margin asosiy faoliyatdan olingan daromadning qanchalik samarali boshqarilayotganini ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash sohasida operatsion xarajatlar ko'p va murakkab bo'lgani uchun, Operating Margin bu xarajatlarning nazorat qilinishi haqida aniq ma'lumot beradi.

Iqtisodiy barqarorlikni baholash. Operating Margin yuqori bo'lsa, loyiha o'z operatsion xarajatlarni qoplab, qo'shimcha daromad keltirayotganini bildiradi. Sog'liqni saqlash sohasida bu ko'rsatkich loyihaning investitsiyalarga, jumladan, uzoq muddatli xizmat ko'rsatishga qodirligini namoyon etadi.

Qaror qabul qilish jarayonida qo'llanilishi. Operating Margin loyiha menejerlari va investorlar uchun muhim indikator bo'lib, u loyihaning qaysi jihatlari samarali ekanini va qaysilarini yaxshilash zarurligini aniqlashda yordam beradi. Shu asosda xarajatlarni qisqartirish yoki daromadni oshirish choralarini belgilash mumkin.

Sohadagi boshqa tashkilotlar bilan solishtirish. Operating Margin ko'rsatkichi orqali turli davlat-xususiy sheriklik loyihalari yoki sog'liqni saqlash muassasalari samaradorligini taqqoslash mumkin. Bu eng samarali loyihalarni aniqlash va ularning tajribasini boshqalarga tatbiq etish imkonini beradi.

Operating Margin samaradorlik ko'rsatkichi sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim moliyaviy mezon hisoblanadi. U loyihaning asosiy faoliyatidan olingan foyda va daromadlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich orqali loyiha samaradorligini tahlil qilish, xarajatlarni nazorat qilish va boshqaruvni takomillashtirish mumkin. Shuningdek, Operating Margin loyihaning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishiga oid qarorlarni qabul qilishda katta ahamiyatga ega.

Ushbu samaradorlik ko'rsatkichlarining amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida umumiy qiymati o'n million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat va xususiy



sheriklik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda diskont usullaridan — sof diskont daromad (NPV), foydalilikning ichki normasi (IRR), xarajatlarni qoplashning diskontlangan muddatini hisoblash, kapitalning o'rtacha qiymati (WACC) usulidan foydalanib, loyiha samaradorligini baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini baholashda moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar kompleks usulda qo'llanishi muhimdir. Ular loyihaning turli jihatlarini o'lchash imkonini beradi va boshqaruvni optimallashtirishga yordam beradi. Operating Margin asosiy faoliyatdan olingan daromadning operatsion xarajatlarga nisbatini ko'rsatib, loyihaning iqtisodiy barqarorligi va samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, boshqa ko'rsatkichlar — NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return), PI (Profitability Index), ROI (Return on Investment) va CBA (Cost-Benefit Analysis) loyihaning umumiy moliyaviy samaradorligini hamda investitsiya jozibadorligini baholashda yordam beradi. Ularning barchasi birgalikda loyiha belgilangan iqtisodiy maqsadlarga javob berishini, investitsiyalarning o'z vaqtida qaytishini va qo'shimcha daromad olish imkoniyatini ta'minlashini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu ko'rsatkichlarni to'liq va uyg'un tahlil qilish davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligini oshirish hamda mablag'lardan samarali foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dedicated Public-Private Partnership Units: A Survey of Institutional and Governance Structures, OECD, 2010
2. Dmitrieva E.O., Guseva M.S. Centry razvitija gosudarstvenno-chastnogo partnerstva: analiz mezhdunarodnoj praktiki sozdanija i razvitija // Internet-zhurnal «NAUKOVEDENIE» Tom 8, №6 (2016) <http://naukovedenie.ru/PDF/39EVN616.pdf>
3. Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. - М.: Дело, 2010. С.120.
4. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве / Дынин Е. А. // Общество и экономика. - 2007. - № 5 - 6. С.111.
5. Hodge G., Greve C. Public-Private Partnerships: Policy and Governance Challenges Facing Partnership Arrangements in the Public Sector. Public Management Review. – London, 2007.
6. Gatti S. Project Finance in Theory and Practice: Designing, Structuring, and Financing Private and Public Projects. Academic Press, 2018.
7. Bloom D., Canning D. Health and Economic Growth: Reconciling the Micro and Macro Evidence. World Bank Publications, 2005.
8. Allen R., Grewal B. Evaluating Public-Private Partnerships in Health Sector. Journal of Economic Policy Reform. – London, 2010.
9. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/cn/pdf/en/2017/08/tax-impacts-of-ppp-in-china.pdf>
10. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/cn/pdf/en/2017/08/tax-impacts-of-ppp-in-china.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
